

## MAROSIM QO'SHIQLARINING BADIY TALQINI VA KLASSIFIKATSIYASI

Yusupbayev Mardonbek Shonazar o'g'li

O'zbekiston davlat san'at va madaniyat instituti

Folklor va etnografiya kafedrası o'qituvchisi

**Annotatsiya:** Maqolada qadimiy marosim qo'shiqlari, folklor namunalari xususan marosim qo'shiqlarining badiiy talqini va klassifikatsiyasi haqida fikr va mulohazalar keltirilgan. Nafaqat o'zbek, balki dunyo dostonchiligida alohida mavqega ega, qadimiy, badiiy jihatdan yuksak epik ijod na'munasi hisoblangan ushbu asar- "alpomish" dostoni ilmiy maqolada ilmiy jihatdan tadqiq etilgan.

**Kalit so'zlar:** qadimiy marosimlar, o'lan, aytishuv, folklor, ma'naviyat, doston, tarbiya, epos, xalq, alpomish, o'zbek, yoshlar

### KIRISH

O'zbek xalqi azal-azaldan boy madaniy merosi, irsiyat jamg'armasi xazinasidagi ma'naviy boyliklari, bugungi kunda qadr topgan qadriyatlariga egaligi bilan jahon miqyosida katta o'ringa ega. Ayniqsa, o'zbek xalqi yaratgan "Alpomish" singari ulug' asarda yaqqol namoyon bo'lgan odamiylik, adolatparvarlik, erksevarlik, mardlik, oilaga sadoqat, sevgi, mehr-muhabbat, murosa-yu madora silsilasidagi falsafiy ta'limotlar mustaqil O'zbekistonning ma'naviyatida yangi sifat bosqichiga ko'tarilayotganligi ham tabiiydir<sup>26</sup>.

Marosim qo'shiqlari musiqa folklorining murakkab va muhim masalalaridandir. San'atning ba'zi bir tomonlari, xalq ma'naviy madaniyati, she'riyati, maishati marosim qo'shiqlarida o'ziga xos ravishda namoyon bo'lgan va u bilan birlashib ketgan. Marosim qo'shiqlari o'zbek xalqi hayotini, tarixi, etnografiyasi, diniy e'tiqodi bilan bog'liqligi, b ularda so'z va kuy mutanosibligi muhim rol uynaydi va ahamiyat kasb etadi.

O'zbek xalqi juda boy, xilma-xil an'analarga ega. Bularni ijtimoiy munosabatlar turlariga qarab shartli ravishda tabiat, geografik muhit, mehnat turlari, milliy turmush va madaniyatga doir an'analarga bo'lish mumkin.

### TADQIQOT METODOLOGIYASI VA EMPIRIK TAHLILI

Ma'lumki, o'zbek xalqining to'y marosimi o'zining betakror rasm-rusmlari bilan alohida ajralib turadi. Ayniqsa, nikoh marosimidagi har bir hududga xos teatrlashtirilgan an'anaviy urf-odatlar va ularda ijro etiluvchi qo'shiq, aytim, olqishlar bu marosimni yanada go'zallashtiradi<sup>27</sup>.

O'zbek xalqining o'ziga xos iqlimi, aholining mashg'uloti, xo'jalik faoliyatidagi an'analar avloddan-avlodga o'tib kelgan. Maishiy turmushda musiqa va she'riyatning o'rni, so'z, raqs va tomosha san'atlarining sehirli kuchidan foydalanishda o'ziga xos an'analar

<sup>26</sup> Zarnigor Miragzamovna Sodiqova "Alpomish" dostoni va yoshlar tarbiyasi" SCIENTIFIC PROGRESS VOLUME 2 | ISSUE 6 | 2021 ISSN: 2181-1601

<sup>27</sup> Xudoyberdiyeva, Xulkar Zoxid Qizi. "O'ZBEKISTONDA NAQQOSHLIK SAN'ATI VA YETAKCHI NAQQOSHLAR TARIXI VA RIVOJLANISHI." *Academic research in educational sciences* 2.7 (2021): 52-60.

yuzaga kelgan. Marosimda urf-odatlar qo'shiqlar bilan bir butunlikda olinadi. Zero, marosimning tarixiy taqomilini ko'rish uchun qo'shiqlarning badiiy obrazi muhim o'rin tutadi. Qo'shiqlar mehnatkash xalqni moddiy va ma'naviy hayotining hamma tomonlari bilan mahkam bog'langan bo'lib, ular muayyan tarixiy taraqqiyotda insoniyat tafakkuri darajasiga qarab turmushni o'ziga xos obrazlarida badiiy aks ettiradi. Qo'shiqlar o'zlarida eng qadimiy tushunchalardan tortib turli davrlarning har xil qatlamlarini ham saqlaganlar.

Navro'zning kelishi, birinchi gul-boychechakning ochilishi; yomg'ir, shamol va qorlarni chaqirish, shamolni to'xtatish; bahor faslida qo'sh chiqarib yerni haydash, lola sayli, xirmon ko'vonchi; farzand tug'ilishi, yoshlarni nikohlash, marhumni dafn etish, kasalni davolash singari voqealarga maxsus marosim qo'shiqlar, cholg'u kuylar va duolar bag'ishlangan. Marosimlarda xatti-harakat va so'z vositalari qatorida musiqa muhim o'rin tutadi. Biz birorta marosimni qo'shiq yoki aytim-yo'qlovlarsiz tasavvur eta olmaymiz. Marosimlarga ko'ra qo'shiqlar ham mavsumiy, oilaviy-maishiy va diniy-ibodat turlariga bo'linadi. O'zbek xalqi boy tasviriy vositalarda ifodalangan, serqirra mavzusi hamda janrlarning turli-tumanligi bilan xarakterlanuvchi qadimiy marosim qo'shiqlari va ularning ijrochilik usullariga ega. Turli marosimlarda ko'pchilik guruh yoki yakka ijro xoli (ma'lum cholg'u jo'rligi yoki jo'rsiz)da turli kuy-ohanglarda ushbu qo'shiqlar talqin (kattalar yoki bolalar tomonidan) qilinmoqda. O'zbekistonning hamma mintaqa va hududlarida marosim qo'shiqlari mavjud bo'lib, ularning har biri o'ziga xos musiqiy tili va shevasi, shakl va mahalliy ijro uslublari bilan ajralib turadi.

Mavsumiy marosim qo'shiqlari orasida Navro'z bilan bog'liq "Muborakbod", "Yil boshi", "Boychechak", "Salom, Navro'z", "Bahor keldi", "Sumalak"; fasllar bilan bog'liq chaqiriqlar "Sust xotin", "Choy momo", "Qor keldi"; sharq taqvimini bilan "Ramazon" yoki "Yo rabbim" kabi aytim-terma va qo'shiqlar keng tarqalgan. Mavsumiy-mehnat marosimlarida "Ko'sh haydash", "Shoxmoyilar", "Mayda, "Oblo baraka" (erkaklar tomonidan erkin uslubda, baland va ochiq ovozdagi aytilgan) qo'shiqlar mavjud. Oilaviy-maishiy marosim qo'shiqlari to'y, aza-motam va davolash marosim va urf-odatlari bilan bog'liq. Bular "Ona allasi"; to'y marosim qo'shiqlari janrlari "muborak" (To'y muborak, Al muborak, To'y boshlovi), "qutlov" (Xush keldingiz, Kelin va quyov qutlovi), "yor-yor" (Yor-yor yoki O'lan), "kelin salom" (Kelin salom, Chor salom, Xazor ali), aytishuvlar (Muborak, Baytxonlik, Lapar), "hayrlashuv" (To'y javobi, Xorazm vohasida tarqalgan) kabi qo'shiq janrlari mavjud. Aza-motam marosimlarining asosiy aytim shakli "yig'i" va "yo'qlov"dir; "marsiya" qo'shig'i dafn marosimida cholg'u jo'rligisiz erkaklar tomonidan kuylangan. Davolash marosimida ayollar tomonidan yakka va jo'rsiz "badiq" aytimi o'tmishda keng o'rin olgan.

#### NATIJA VA MUHOKAMALAR

Ma'lumki, o'zbeklarning axloqi, odati islom dini qoidalari bilan bog'lanib ketgan. Islom dinining tazyiqi qanchali kuchli bo'lmasin, xalqdagi juda qadimiy ishonch-e'tiqod, urf-odatlar marosim aytim-qo'shiqlar va ashulalar bilan bog'liq bo'lgan va ular yetuk hofizxonandalar tomonidan ijro etilgan. Ular bevosita mumtoz musiqasi namunalari bo'lib, professionallik darajasi bilan belgolanadi. Bular o'zgacha diniy-ibodat marosim aytim-ashulalarni tashkil etadi, jumladan, "azon", "Kur'on aytimi", "mavlud", "zikr aytimlari", shomonlik "ko'ch aytimlari", diniy mavzudagi ashula yo'llari – "munojot", "na't", "kalandariy va xonako'y"lardir.

Mavsumiy va oilaviy-maishiy marosimlarining turlari ko'p bo'lib, ular (inson umri va uning mehnat faoliyati davomida) uzoq o'tmish davrlarda shakllangan bo'lib, o'zida xalqning dunyoqarashi, hayot voqealari, orzu-istaklari, ma'naviy, madaniy va moddiy dunyosi o'z aksini topgan. Shuni ham aytish kerakki, ma'lum marosimlar va ularda ijro etiladigan qo'shiqlar (masalan, Sust xotin, Choy momo, Qo'sh haydash, Qor chaqirish) endilikda o'z mavqeini yo'qotgan bo'lsa-da, ammo ijtimoiy-badiiy tafakkurning rivojlanishi jarayonida ma'lum ahamiyat kasb etib kelmoqda. Modomiki, ushbu marosimlarda qo'llangan musiqiy janrlar haligacha xalqimiz hayotida saqlanib, o'z holida yoki qayta tiklangan, sahnaviy (folklor-etnografik ansambllari) talqinida ijro etilmoqda. Ushbu qo'shiqlarga xos bo'lgan ijrochilik uslublari va usullari ham ayrim o'zgarishlarga duch kelmoqda, masalan, yakkaxon aytim yo'li o'rnida aytishuv yoki guruh bo'lib aytish shakllari keng qo'llanilmoqda; jo'rsozliksiz ijro etilgan qo'shiq va aytim yo'llari endilikda doira, dutor, chang-qo'biz yoki an'anaviy cholg'ular ansambli jo'rligida tinglovchilarga taqdim etilmoqda.

### XULOSA VA TAVSIYALAR

Xulosa o'rnida shuni ta'kidlashim mumkinki marosimlar va marosim qo'shiqlari muhofaza qilish, saqlash va keng omma orasida targ'ibot etish O'zbekistonda ekspeditsiya jarayonlarida ohangrabo tasmlariga yozib olish va notaga tushirish (kitoblar va to'plamlar nashri), radio va televidenie orqali eshittirishlar tayyorlash, autentik folklor (jumladan, alla va to'y marosim qo'shiqlari) bo'yicha tanlovlar, anjumanlar, festivallar (1987 yildan boshlab) o'tkazilmoqda va ular ilmiy-tadqiqot ishlarida juda qo'l kelmoqda. Darvoqe, o'tmishdagi an'ana hamda urf-odatlarni aniqlash bevosita marosim qo'shiqlari, kengroq, marosim musiqasi janrlarini jiddiy tadqiq etish orqali amalga oshmoqda. Xalqimizning dunyoqarashi, ijtimoiy-siyosiy, maishiy-estetik va falsafiy qarashlarini o'ziga xos tarzda badiiy talqin qiluvchi marosim qo'shiqlari o'nlab janrlari o'z ichiga olgan g'oyat nodir manba hisoblanadi.

### FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Muziyevning xalqaro baxshichilik san'ati festivali ochilishiga bag'ishlangan tantanali marosimidagi nutqi. O'tmishning aks sadosi, bugungi kunning jarangdor ovozi. Xalq so'zi. 2019 yil. 7-aprel. №-68 soni.
2. Alaviya M. O'zbek xalq marosim qo'shiqlari. – T.: Fan, 1974. – 222 b.
3. Alpomish. O'zbek xalq qahramonlik eposi. Aytuvchi Fozil Yo'ldosh o'g'li. Nashrga tayyorlovchi To'ra Mirzaev. – Tashkent: Fan, 1999. – 827 b.
4. Jo'raev M., Narziqulova M. Mif, folklor, adabiyot. – T.: Alisher Navoiy nomidagi O'zbekiston milliy kutubxonasi nashriyoti, Fan, 2006. – 184 b.
5. Jo'raev M., Xudoyqulova L. Marosimnoma. O'zbek xalqining urf-odat va marosimlari haqida qisqacha ma'lumotnoma. – T.: O'zbekiston milliy kutubxonasi nashriyoti, Fan, 2008. – 48 b.
6. Mirzaev T. Xalq baxshilarining epik repertuari. – Tashkent: Fan, 1979. – 152 bet.
7. Mirzaev T. «Alpomish» dostonining o'zbek variantlari. – Tashkent: Fan, 1968. 168 b.

8. Musaqulov A. O'zbek xalq lirikasi. – T.: Fan, 2010. – 220 b.
9. Sarimsoqov B. O'zbek marosim folklori. –Toshkent: Fan, 1986. 216-b.
10. Turdimov Sh. Etnos va epos. –Toshkent: O'zbekiston, 2012. –120-b.
11. Turdimov Sh. Hikmat xazinasasi. –Toshkent: O'zbekiston, 2016. 278-b.
12. Eshonqul J. Folklor: obraz va talqin. –Qarshi: Nasaf, 1999. – 170-b.
13. Eshonqul J. Epik tafakkur tadriji. –Toshkent: Fan, 2006. – 120-b.